

Date: 29th December-2025

**OLIY TA'LIMDA MA'NAVIY TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA
PEDAGOGIK MUHITNING AHAMIYATI**

Sobirova Dilorom Mirzakbar qizi

Pedagogika nazariyasi va tarixi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998932112806 murodullayevadilorom3@gmail.com

“Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Shu bois, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur”, davlatimiz rahbari

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: Hozirgi shiddat bilan yuksalib borayotgan globallashuv davrida ta'lim va tarbiya masalari yoshlar o'rtasida quyi o'rinlarga tushib bormoqda. Ayniqsa navqironlik davridan ilk voyaga yetgan shaxs davriga o'tayotgan yoshlar ongining turli axborot oqimlari ya'ni “o'rgimchak to'ri” ga ilinib qolayotganini har birimiz guvohi bo'lmoqdamiz. Ma'naviy tarbiya masalalariga bizning mamlakatimizda ham e'tibor kuchaytirilmoqda. Hurmatli prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida 26.03.2021-yil PQ-5040-son qarori tasdiqlandi. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimining yuqori cho'qqiga chiqishiga qanday omillar sabab bo'layotgani va bizning ta'lim tizimimizga integratsiyasi yoritilgan. Xususi va davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatida sog'lom raqobatning yaratilishi hamda ta'lim sifati ko'rsatkichlarining yaxshilanib borayotgani bir necha misollar tariqasida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik muhit, globallashuv, faoliyat, universitet, ma'naviy tarbiya, islohot, tadbir.

Annotation: In the current era of rapidly increasing globalization, issues of education and upbringing are becoming less important among young people. Each of us is witnessing the fact that the minds of young people, especially those who are transitioning from adolescence to adulthood, are becoming entangled in various information flows, that is, in a “spider web”. Attention is also being paid to issues of spiritual upbringing in our country. Our esteemed President Sh. Mirziyoyev approved the Resolution No. PQ-5040 dated 26.03.2021 on measures to radically reform the system of spiritual and educational work. The importance of the life-giving idea “From national revival to national progress” in building a legal state and civil society in our country is increasingly increasing.

The factors that contribute to the high level of the education system in developed countries and its integration into our education system are highlighted. The creation of healthy



Date: 29th December-2025

competition in the activities of private and public higher education institutions and the improvement of education quality indicators are briefly described in the form of several examples.

Keywords: Pedagogical environment, globalization, activity, university, spiritual education, reform, event.



KIRISH. Oliy ta'limda ma'naviy tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik muhitning ahamiyati juda katta, chunki u talabalarning shaxsiy sifatlarini shakllantirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va kasbiy faoliyatiga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik muhitga o'quv materiallarini o'zlashtirish, talabalarning o'zaro munosabatlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va umumiy ta'lim muhiti kiradi. Yaxshi tashkil etilgan pedagogik muhit talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi, ularni o'z kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlariga zamin yaratadi.

Pedagogik muhitning ahamiyati. Mana shu yerda hozirgi globallashuv va fan texnika inqilobi zamonida dunyoning rivojlangan davlatlari va bizning diyorumizda oliy ta'lim haqida qisqacha to'xtalsak. Har yili dunyoning eng zo'r universitetlari ro'yxati e'lon qilinadi. Bunda dunyo davlatlarining oliy ta'limdagi muvaffaqiyati asosida tuzilgan xarita och yoki to'q sarg'ish va qizg'ish ranglar bilan belgilangan. Rang qanchalik to'q bo'lsa, o'sha mamlakat universitetlari dunyoda oldi o'rinlarda. Och qizg'ish yo sarg'ish ranglar esa oliy ta'lim darajasi o'rtacha degani.

BBC ma'lumotiga ko'ra, oxirgi yillar tahlili bo'yicha ham ushbu xaritada ikkita mintaqa rangsiz, ulkan oppoq dog' kabi ko'zga tashlanadi. Bittasi - Qora Afrika, ikkinchisi esa - Markaziy Osiyo. Aytgancha, bu qatorda yana boshi urushlardan chiqmayotgan Iroq, Suriya va Afg'oniston kabi davlatlar ham bor. Ilm-fan sohasida yetakchi o'rinlarda borayotgan AQSH, Yaponiya kabi ilg'or davlatlarda qanday pedagogik muhit yaratib berilganki ularning ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlar birinchilikni nima uchun hech kimga berishmaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik muhitning samarali tashkil etilishi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, milliy qadriyatlari, ta'lim siyosati va texnologik imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. AQSH va Yaponiya — ta'lim tizimlari yuqori rivojlangan, innovatsiyalarni faol tatbiq etuvchi ikki yetakchi davlat bo'lib, ular yaratgan pedagogik muhit bugungi global ta'lim jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

AQSHda ta'lim John Dewey, Carl Rogers kabi pedagoglarning konstruktivistik g'oyalariga tayanadi. Ya'ni o'quvchi — passiv emas, faol subyekt; o'rganish — tajriba va faoliyat orqali amalga oshadi; muhit — o'quvchini fikrlashga, izlanishga undashi kerak deb hisoblashadi. Bundan ko'rinib turibdiki AQSH pedagogik muhitida o'quvchi yoki talaba o'quv jarayonida pedagoglarning kuzatuv markazidagi eng asosiy shaxsdir. Ular shunchaki dars vaqtida o'quvchiga bilim berish va uning ahloqini nazorat qilish bilan cheklanishmaydi. Balki pedagogik muhitni tashkil etishda muhim tamoyillar: o'quvchi shaxsining sha'ni va qadrini himoya qilish, nogironligi bo'lgan o'quvchilarning teng ishtiroki kabilarni ishlab chiqishgan. Maktablarda "school counselor" (psixolog-

Date: 29th December-2025



maslahatchi) alohida lavozim sifatida ishlaydi va har bir o'quvchini alohida kuzatadi. AQSH pedagogik muhitini faqat maktab yoki universitet emas, balki: mahalliy jamoalar, nodavlat ta'lim tashkilotlari, texnoparklar, startap markazlari, kompaniyalar ham shakllantiradi. Masalan, Google, Amazon, Microsoft o'z maktab va kollejlariida bevosita ta'lim dasturlarini yaratadi.

Yaponiya maktablarida ma'naviy tarbiya mustaqil fan sifatida o'qitiladi. Yaponiya o'qituvchilari darsni: birgalikda rejalashtiradi, kuzatadi, tahlil qiladi takomillashtiradi. Bu jarayon yil davomida davom etadi. Natija: dars sifati oshadi, o'qituvchilar orasida hamkorlik mustahkamlanadi, o'quvchi ehtiyojlari chuqur tahlil qilinadi. AQSH, Singapur, Kanada kabi davlatlar ham bu modellarni qabul qilgan. O'zimizning O'zbekiston Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarida hozirgi kunda sog'lom raqobat muhiti ta'minlab berilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.. Kundan kunga ta'lim sifati oshib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri xususiy oliy ta'lim muassasalarinining soni oshganligi va davlat oliy ta'lim muassasalari bilan raqobatbardoshligi yuqoriligi deb o'ylayman. Chunki O'zbekiston oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar ta'lim bozorida sifat va samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida sog'lom raqobatni shakllantirdi. Davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatning kuchayishi ta'lim sifatini oshirish, akademik erkinlikni kengaytirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga mos ta'lim muhitini yaratishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ta'lim tizimida sifat raqobat orqali shakllanadi", degan tamoyil bugungi islohotlarning markazida turibdi.

Xususiy oliy ta'lim muassasalari 2019–2024 yillar davrida faol yo'lga qo'yildi. Ularning ko'payishi bilan ta'lim bozorida: moliyaviy mustaqillik, tezkor boshqaruv, ta'limning yangi modellari (masalan, modul-kredit tizimi), professor-o'qituvchilarni erkin tanlash va yuqori maosh berish kabi ustunliklar namoyon bo'ldi. Xususiy sektorning kirishi davlat OTMlarini sifat bo'yicha musobaqalashishga, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga, kadrlar malakasini oshirishga majbur qildi. Shunday ekan bizning ta'lim tizimimiz dunyoning yetakchi bo'lib qolayotgan davlatlarning ta'lim andozasidan qay jihatdan ortda qolayotgani va nima uchun dunyoning TOP 1000 ligiga haligacha kirmayotganligi ustida tinimsiz ishlashni taqazo etmoqda.

O'quv materiallarini o'zlashtirish: Pedagogik muhitda o'qituvchilarning o'quv materialini taqdim etish usullari, talabalar bilan muloqot uslublari, o'quv jarayoniga ma'naviy tarbiyaning singdirilishi talabalarning bilimlarini chuqurlashtirishga va ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775- son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o'quv qo'llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.[1]

Date: 29th December-2025



Talabalarning o‘zaro munosabatlari: Talabalar o‘rtasidagi do‘stona, hamkorlik va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar ma’naviy tarbiyaning muhim qismidir. Shaxslararo munosabatlar, ta’lim jarayonining muhim qismi bo‘lib, talabalarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlariga, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar, jamoaviy ruh, o‘zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirish orqali ta’lim muassasalarida samarali o‘qitish uchun qulay muhit yaratiladi. Pedagogik-psixologik metodlar shaxslararo munosabatlarning sog‘lom rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi va talabalar o‘rtasida ishonch, hurmat, to‘g‘ri muloqot va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar, psixologik maslahatlar, guruhli faoliyatlar, o‘yin texnologiyalari va boshqa metodlardan keng foydalanish talab etiladi. Ushbu metodlar talabalar orasidagi ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirish, xulq-atvorni ijobiy yo‘naltirish, o‘zaro muloqotni samarali qilish va o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.[2]

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar: Turli xil madaniy, sport va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar faoliyatini kengaytirish va ularning ma’naviy dunyoqarashini boyitishga yordam beradi. Ma’naviy –ma’rifiy ishlar samaradorligi-joylarda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligi va tarbiyaviy ishlardan kutilgan natijaga erishilganini ifodalaydigan tushuncha. Shu soha xodimlarining faoliyati va tarbiyaviy salohiyatidan unumli foydalanish darajasining ko‘rsatkichi. Bu maqsadga erishish uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligiga ta’sir o‘tkazuvchi omillarning harakat qilish mexanizmlari va xususiyatlarini aniqlash, ulardan unumli foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligi yuqori bo‘lishi uchun ularni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida yoshlarda tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash hissini shakllantirish va rivojlantirish tashkilotchining diqqat markazida bo‘lishi lozim. Ta’lim tizimidagi ma’ruza, amaliy mashg‘ulotni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan uyg‘unlashtirish, bir tomondan, ta’lim samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tayyorlash hamda o‘tkazishga yoshlarni keng jalb qilish ularda tuyg‘udoshlik hissini uyg‘otadi va bu holat o‘tkazilgan tadbirning tarbiyaviy samaradorligini yanada oshiradi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan ma’naviy-axloqiy tarbiyada samarali foydalanishning muhim sharti shuki, bunda har bir kishining xususiyatlari, muayyan voqea-hodisaga nisbatan fikri qay darajada shakllanganini hisobga olish lozim.[3]

Kasbiy faoliyatga tayyorlash: Yaxshi pedagogik muhit talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirib, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlariga zamin yaratadi.

Pedagogik muhitni rivojlantirish yo‘nalishlari

Date: 29th December-2025

O'quv jarayonini takomillashtirish: O'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy darslariga tayyorlanishlari va o'quv materiallarini talabalarga qiziqarli tarzda taqdim etishlari.

Talabalar bilan hamkorlikni kuchaytirish: Talabalarning o'qituvchilar bilan ochiq muloqot qilishlari uchun imkoniyatlar yaratish.

XULOSA: Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyatda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarimizni ta'lim olishga qamrab olish, ularning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ularning ongini yot g'oyaning haokatli ta'siridan saqlashning samarali yo'li bu ularning ma'naviy tarbiyasini uzluksiz boyitib borishdir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sonining oshishi va bu sohada targ'ibot ishlarining keng yoyilayotgani, hattoki olis hududlar ham bundan mustasno emasligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775- son qarori
2. Kadirova, D. (2019). Shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda psixologik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti
3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida 28.07.2017-yil PQ-3160-Son qarori

